

"SURXON- ULUG‘ AVLIYOLAR BESHIGI"

Mashhura Egamberdiyeva

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti
3-bosqich talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8106813>

Annotatsiya: *Surxon vohasi qadimdan ilm-fan va diniy bilimlar tarqalgan obod o'lkalardan biri bo'lib kelgan. Bu yerda Zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlar keng rivoj topgan. Buddaviylik dinning keng tarqalishida Termizlik rohib-kohinlarning o'rni alohida bo'lgan.*

Kalit so'zlar: *Avliyolar, Termiziy allomalar, ilm-fan, Surxon vohasi, Al-Hakim at-Termiziy.*

Surxon vohasi qadimdan ilm-fan va diniy bilimlar tarqalgan obod o'lkalardan biri bo'lib kelgan. Bu yerda Zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlar keng rivoj topgan. Buddaviylik dinning keng tarqalishida Termizlik rohib-kohinlarning o'rni alohida bo'lgan.

O'lkada Islom dini kirib kelganidan so'ng ba'zi qadimiy urf-odatlar asta-sekin bu din bilan uyg'unlashib, Islomiy mazmun va ko'rinish kasb etdi. Islom dini an'analari rivoj topishida ham Termiziy allomalarning o'z hissalarini mavjud. Islom dinining oltin davri bo'lmish IX-XI asrlarda Movarounnar, xususan termizlik ulamolarning munosib o'rinlari bo'lganligi ma'lum. Ushbu tarixiy shaxslar o'rgangan diniy va dunyoviy ilmlar asrlar osha bugungi kungacha xalqimizning keng dunyoqarashini shakllantirishga, uning manaviy qiyofasini boyitishda xalqimizning jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin topishida o'z o'rniga egadir.

Mustaqillik yillari davomida ulug' bobolarimizning nomlari ulug'lanib, ularning muborak qadamjolari obod etildi. Ko'plab ziyoratgohlar ta'mirlanib bobolarimizning maqbaralari tiklandi va ruhlari shod etildi. Chunki muqaddas joylarda dafn etilgan ulamolarning ko'pchiligi Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'daniy hayotida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan, dunyoviy va diniy ilmlarning rivojiga har tomonlama munosib hissa qo'shgan, xalqimizning hurmatiga sazovor bo'lgan shaxslar hisoblanishadi.

Xususan Surxon vohasida ulamolarning juda ko'plab qadamjolari va ziyoratgohlari mavjud. Bunda diniy va dunyoviy olimlarning ziyoratgohlarini obod qilish davlatimiz siyosatida munosib o'rin olgan. Ulamolimiz Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf, Abu Xurayra, Axtam sahoba, Xo'ja hasan Ilg'oriy, Hazrat sulton Valiy, Alouddin Attor, So'fi Olloyor va boshqalarning qadami tekkan muqadas ziyoratgohlar obodonlashtirilmoqda. Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohi viloyatimizdagi eng katta ziyoratgohlaran biri hisoblanadi.

Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Xasan ibn Bashir nafaqat zoxiriy balki, botiniy ilmlarni ham chuqur egallaganligi uchun "at-Termiziy" deb nom olgan. Shuningdek u xalq orasida "al-Hakim" deb ham shuhrat qozonadi. [1]

Al-Hakim at-Termiziy mashhur muhaddis va tasavvuf shayxlaridan biri bo'lganlar. U kishiga ulug' ulamolar, xususan, Abu Turob an-Naxshabiy, Yaxyo ibn Jallo, Ahmad ibn Xisraviylarning qo'lida ta'lim olgan.² Hayotlari davomida Shom, Bag'dod, Misr kabi joylarda bo'lganlar, u yerlik olimlar bilan muloqot qilganlar. Tasavvuf va so'fiylik ilmi eng rivoj topayotgan bir paytda ulug' bobomiz Makka, Madina, Kufa, Basra, Bag'dod, Hamadon, Nishopur kabi islom olamining mashhur shaharlarida bo'lganlar. Bu shaharlarda

jahon klassik tasavvuf ulamolarining g'oyalarini o'rgandilar, xususan Zunnun al-Misriy(Zunnuniya tariqati asoschisi), Boyazid al-Bistoliy(Tayfuriya tariqati asoschisi), Junayd al-Bag'dodiy(Junaydiya tariqati asoschisi), Abu Mansur al-Xalloj kabi ulamolar shular jumlasidandir. Al-Hakim at-Termiziy Eronning Nishopur shahriga borib u yerda "Hakimiya" tariqatiga asos soladilar. "Hakimiya"ning maqomatlari, nizomlari, pir va muridlarga qo'yiladigan talablar, zikr va ibodat usullariga bag'ishlab "Kitob an-Najoh" (Yo'l-yo'riqlar kitobi), "Xatm al-avliyo" (Valiylar muhri), "Irshod at-Tolibin"(Toliblarga yo'riqнома) kabi kitoblarni yozgan.³

Al-Hakim at-Termiziy 400 dan ortiq asarlar yozgan, Ulardan 57 tasi bizgacha yetib kelganligi haqida ma'lumotlar bor. "Nazoir al-Qur'on" , "Navodir al-usul" , "Usul al-Muvahiddin" , "Isbot al-ilal ash-shar'iyah" , "Kitob shahr as-salot" , "Navro'znoma" , "Solnoma" kabi kiotblari jahonga mashhurdir.⁴

Al-Hakim at-Termiziy Termizga qaytgach Jayhunning Balx shahri va Payg'ambar oroli ko'rinib turadigan eng baland va bahavo ho'shmanzara joyini tanlab masjid va xonaqoh bunyod ettiradi. Bu maqbara eski Termizda Amudaryo bo'ya joylashgan bo'lib uzoq yillar tolibi ilmlar uchun xizmat qilgan.

Ulug' olim vafot etganlaridan so'ng shu xonaqohga dafn etilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Surxon vohasi bunday ulug' shayx va pirlarning yurtidir. Termiziy allomalar, ularning ilmiy merosini o'rganish biz yoshlarning eng birinchi vazifalarimizdan bo'lishi lozim. Bobolarimiz qioldirib ketgan ilm asosida xalqimizning buyuk ma'naviyati, chuqur ilmiy salohiyatini jahon madaniyatidagi o'rnini chuqur tahlil etmog'imiz lozim. Shuningdek ulamolarimizning kitoblarini o'qib o'rganib kelajak yoshlarimizni shu ruhda tarbiyalash bizning ustovor vazifamiz deb bilaman. Islomiy odob-axloq, tarbiya borasidagi fikrlarni Termiziy bobolarimiz asarlarida juda ham keng o'rganishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Usmonov I. Al-Hakim at-Termiziyning "Navodir al-usul"asari-hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba.-T.: Toshkent Islom universiteti, 2007. B-14
2. Кныш А.Д «Мусульманский мистицизм.краткая история»-С.Петербург.: Дилья, 2008. С-118
3. Omonturdiyev J. Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti- T.: Universitet, 2000. B-40.
4. H.Karomatov va boshqalar tahriri ostida- Buyuk allomalarimiz-T.: Toshkent Islom universiteti, 2002. B-13.